JIZZAX VILOYATI FORISH TUMAN HOKIMI
Q A R O R I

2021 - yil 14 - dekabr 171-3-53-Q/21 Forish tuman hokimligi

Forish tumani markazi “Bog’don” shaharchasidan o’tgan davlat ahamiyatidagi 4R36 “Jizzax sh.-Yangiqishloq q.-Qizilcha q.-Qizilqum xalqa yo’li”ning 69-70 km. oralig’iga yo’l belgilarini o’rnatishga ruxsat etish to’g’risida

O’zbekiston Respublikasining “Yo’l harakati xavfsizligi to’g’risida”gi Qonuni, Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 24 dekabrdagi “Yo’l harakati qoidalarini tasdiqlash to’g’risida”gi 370-sonli qarorini ijrosini ta’minlash maqsadida hamda Forish tuman ichki ishlar bo’limining 2021 yil 17 noyabrdagi 42/1930-sonli xatini inobatga olib, O’zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimyati to’g’risida”gi Qonunining 6, 25-moddalariga asosan

QAROR QILAMAN:

1. Forish tuman ichki ishlar bo‘limining 2021-yil 17-noyabrdagi 42/1930-sonli xati ma’lumot va asos uchun qabul qilinsin.

2. Forish tumani markazi “Bog‘don” shaharchasidan o‘tgan davlat ahamiyatidagi 4R36 “Jizzax sh.-Yangiqishloq q.-Qizilcha q.-Qizilqum xalqa yo‘li”ning 69-70 km. oralig‘iga ilovaga muvofiq tegishli yo‘l belgilari o‘rnatilsin.

3. Tuman “Yo‘llardan foydalanish“ UK (F.Xakimov)ga tuman markazi “Bog‘don” shaharchasidan o‘tgan davlat ahamiyatidagi 4R36 “Jizzax sh.-Yangiqishloq q.-Qizilcha q.-Qizilqum xalqa yo‘li”ning 69-70 km. oralig‘iga yo‘l belgilarini o‘rnatish vazifasi topshirilsin.

4. Yo‘l harakati qatnashchilari “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni va “Yo‘l harakati qoidalari”ga muvofiq o‘rnatilgan ogohlantiruvchi, imtiyoz, taqiqlovchi, axborot-ishora belgilari hamda svetofor ishoralari, yo‘l chiziqlarining talablarini bilishlari, ularga amal qilishlari,

shuningdek berilgan vakolat doirasida yo‘llarda harakatni tartibga soluvchilarning ko‘rsatmalarini so‘zsiz bajarishlari shart.

5. Tuman IIB YHXG (V.Xusanov)ga mazkur yo‘l belgilarini o‘rnatilishini hamda tuman markazida yo‘lovchi tashish xizmati bilan shug‘ullanayotgan transport vositalari harakatini tartibga solish va harakat xavfsizligini ta’minlash maqsadida “O‘zbekiston” MFY, Amir Temur ko‘chasida joylashgan “Avtoboshbekat” orqali faoliyatlarini yo‘lga qo‘yishni kunlik nazorat qilib borish vazifasi yuklatilsin.

6. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari F.Amirov zimmasiga yuklatilsin.

7. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Туман ҳокими **И.Матиев**

Фориш туман ҳокимининг
2021 йил 14 декабрдаги
171-3-53-Q/21-сон қарорига
1-илова

Forish tumani markazi “Bog’don” shaharchasidan o’tgan davlat ahamiyatidagi 4R36 “Jizzax sh-Yangiqishloq k.-Qizilcha k-Qizilqum xalqa yo’li"ning 69 - 70 km. oralig’ida o’rnatiladigan yo’l belgilari

T/P	Yo’l belgisining nomi	Joylashtirish joyi (PK)	Soni (dona)
1	3.27 To’xtash taqiqlangan	PK69+500	1
2	3.27 To’xtash taqiqlangan	PK 69+580	1